

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



"TASDIQLAYMAN"

Rektor

Sh.Sirojiddinov

2022-yil

26 -avgust

## NAVOIYSHUNOSLIK

fanining ishchi o'quv dasturi (sillabusi)

Bilim sohasi:	100 000 – Gumanitar soha
Ta'lim sohasi:	110 000 – Pedagogika
Ta'lim yo'nalishi:	5111200 – O'zbek tili va adabiyoti (kechki)

Toshkent – 2022

Fan/modul kodi 400.1NSh6M	Fan/modul turi majburiy	Ta'lim tili o'zbek	Ishlab chiqilgan o'quv yili 2022/2023							
Semestr	Har bir semestrdagi modulning nomi	ECTS - Kreditlar	Haftalik dars soatlari	O'quv mashg'ulotlari (soat)					Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
				Jami:	ma'ruza	seminar	amaliy	laboratoriya		
6	Alisher Navoiy hayoti va ijodi	6	6	90	30	60	0	0	90	180
	<b>Jami:</b>	<b>6</b>	<b>6</b>	<b>90</b>	<b>30</b>	<b>60</b>	<b>0</b>	<b>0</b>	<b>90</b>	<b>180</b>

### 1. FANNING MAZMUNI

Alisher Navoiy o'zbek xalqining ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandasi, millatimizning g'ururi, sha'nu sharafini dunyoga tarannum etgan so'z san'atkoridir. Shu ma'noda mazkur fanning asosiy maqsadi – Alisher Navoiyning boy adabiy va ilmiy merosini filolog talabalarga ta'lim berish orqali ularni yuksak ma'naviyatli va keng ma'rifat sohibi etib tarbiyalashdir. Yoshlarning ma'naviy dunyosini milliylik va insonparvarlik zaminida shakllanishiga g'oyat kuchli va samarali ta'sir ko'rsatadigan, ayni paytda, o'zbek mumtoz adabiyoti va o'zbek milliy ma'naviyatining shakllanish va rivojlanish qonuniyatlarini anglash yo'lida ochqich – kalit vazifasini bajaradigan Navoiy ijodini o'rganish orqali yoshlarda sog'lom tafakkur tarzini shakllantirish, o'zbek adabiyoti tarixining eng muhim davri haqida har tomonlama bilim hosil qilish, ma'naviy dunyosi mukammal bo'lishiga ko'maklashish ushbu o'quv fanining asosiy maqsadlaridan hisoblanadi.

### 2. FANNI O'QITISH NATIJALARI VA SHAKLLANADIGAN KASBIY KOMPETENSIYALAR

Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun "Navoiyshunoslik" fani oldiga quyidagi vazifalar qo'yilgan:

- talabalarga Alisher Navoiyning fenomeni, shaxsiyati, tafakkur dahosi haqida ma'lumot berish;
- Navoiyning komil inson ma'naviyati haqidagi qarashlarini ilmiy jihatdan asoslangan dalillar bilan chuqur o'rganish va hayotga tatbiq etish usul va vositalarni aniqlash;
- badiiy ijod namunalari o'rganish orqali badiiy so'z shukhi, o'zbek tilining keng imkoniyatlaridan foydalanish **malakasini shakllantirish**;
- Navoiy asarlarining o'zbek xalqi ma'naviyatining shakllanishi va rivojiga ko'rsatgan ta'siri haqida ma'lumot berish orqali talabalarda milliy ma'naviyatimizning teran dildzlari haqida **tasavvur hosil qilish**;

2

- Alisher Navoiyning badiiy olami tabiati va qonuniyatlarini tadqiq etish, asarlari mohiyatini teran anglash, to'g'ri tahlil va **tadqiq etish ko'nikmasini hosil qilish**;

- Egallangan bilim va ko'nikmalarni jamiyatda ezgu insoniy fazilatlarining barqaror bo'lishiga yo'naltirish va h.k.

### 3. O'QUV FANI O'QITILISHI BO'YICHA USLUBIY KO'RSATMALAR

Ushbu fan buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiyning hayoti va ijodi haqidagi eng muhim ma'lumotlar, uning asarlari poetikasi, shoir lirikasi, xususan, "Xazoyin ul-maoniy" kulliyoti tarkibiga kiruvchi janrlarni, dostonlari va nasriy asarlarini o'qitish bilan bog'liq masalalarni qamrab olgan.

"Navoiyshunoslik" fanini to'liq o'zlashtirish bakalavriat bosqichi talabalarining bilimlarini mustahkamlash, badiiy did va adabiy idrokni o'stirish hamda ularda tadqiqotchilik malakasini shakllantirish uchun zamin hozirlaydi.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun "Navoiyshunoslik" fani talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, fanga doir muammolarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Fan bo'yicha talabalarining bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. **Talabu:**

- Alisher Navoiyning fenomeni, shaxsiyati, hayot yo'li, tafakkur dahosi, o'zbek tili va adabiyoti, millat madaniyati rivojiga qo'shgan hisssasi, ilmiy va ijodiy faoliyati, o'zbek davlatchiligi va ma'naviyati tarixida tutgan o'rni haqida tavsiyaga **ega bo'lishi**;
- Navoiy asarlarining o'rganilish tarixi, mazmun-mohiyati, adabiy merosining vazn xususiyatlari, janrlar poetikasi, xamsachilik an'anasi, tatabbu, nazira, tavr, muxtura g'azallarning o'ziga xos jihatlari, Navoiy ijodida qo'llanilgan qofiya unsurlari, badiiy san'atlarning hosil bo'lish yo'llari, majoz tariqida yozilgan she'rlarda qo'llanilgan ilmiy, diniy-asotiriy va tasavvufiy istilohlarni sharhlash, badiiy nasr stilistikasi, ramz, timsol va obrazlar mohiyatini anglash, Navoiy asarlari tili, forsiy merosining badiiyati, ilmiy-filologik, tarixiy, irfoni, diniy-falsafiy asarlarining o'ziga xos jihatlari, ma'no qatlamlari, o'zbek va jahon adabiyotining keyingi rivojiga ko'rsatgan ta'siri bilan bog'liq masalalarni **bilishi va ulardan foydalanish** talab etiladi.

### 4. TALABALAR KREDITLARNI OLISH TARTIBI

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, oraliq, yakuniy nazorat bo'yicha test yoki yozma ishni muvaffaqiyatli topshirish.

### TALABALARNI BAHOLASH TARTIBI:

Talabalarining bilimini baholash tartibi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan

3

tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom talabari asosida belgilanadi.

**1. Nazoratlarni amalga oshirish tartibi.**

**Oraliq nazorat:** O'tilgan mavzular asosida yozma yoki test shaklda o'tkaziladi.

**Yakuniy nazorat:** Semestr davomida o'tilgan mavzular bo'yicha og'zaki shaklda o'tkaziladi.

**Izoh:** Oraliq nazorat turi har bir fan bo'yicha fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 2 martagacha o'tkazilishi mumkin.

Talabani oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda, uning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi.

Nazoratlarning o'tkazilishi muddatlari muayyan o'quv yilida tasdiqlangan o'quv jarayoni jadvali asosida tashkil etiladi.

**2. Talabalarining bilimi baholash mezonlari:**

talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – 5 (a'lo) baho;

talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – 4 (yaxshi) baho;

talaba olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – 3 (qoniqarli) baho;

talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning mohiyatini tushunmaydi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda – 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

**5. O'QUV MASHG'ULOTLARI VA MUSTAQIL TA'LIM QISMI**

**1. Ma'ruza mashg'ulotlari**

**VI semestr**

Ma'ruza mashg'ulotlari taqdimot, ma'ruza, tarqatma materiallar asosida olib boriladi.

№	Ma'ruza mavzulari	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soatlar hajmi
<b>1-bob (modul). Alisher Navoiyning hayoti, ijodiy merosi</b>			
1	Alisher Navoiyning hayoti, ijodiy merosi va uning o'rganilish tarixi	Navoiy hayoti va ijodining o'rganilishi tarixi bo'yicha ma'lumot. Navoiy yashagan davr va adabiy muhit haqida	2
2	Alisher Navoiyning lirik merosi	Navoiy ijod etgan devonlar va lirik janrlar haqida ma'lumot	2
3	Xamsanavislik an'anasi va Alisher Navoiy "Xamsa"si. "Hayrat ul-	Xamsanavislik an'anasi va unda Navoiyning o'rni tushuntiriladi. "Hayrat ul-abror" – falsafiy-ta'limiy asar ekanligi yoritiladi	2

	abror" dostoni		
4	"Farhod va Shirin" dostoni	Dostondagi yetakchi talqinlar, obrazlarning hayotiy va ramziy mohiyati sharhlanadi	2
5	"Layli va Majnun" dostoni	Dostonda ishning majoziy va haqiqiy ma'nodagi talqinlari bayon etiladi	2
6	"Sab'ayi sayyor" dostoni	Asar arxitektonikasi va hikoyatlar tahlili	2
7	"Saddi Iskandariy" dostoni	Dostonning genezisi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari va shu tipdagi asarlar bilan qiyosiy tahlili	2
8	"Lison ut-tayr" dostoni	Asarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari o'rganiladi	2
9	Alisher Navoiyning ilmiy merosi. "Majolis un-nafois" va "Mezon ulavzon" asarlari	Navoiy – buyuk mutafakkir olim. Bu asarlar ilmiy tafakkurning serqirra mahsullari sifatida	2
10	Alisher Navoiy – tilshunos	Navoiyning tilshunos sifatidagi qarashlari va o'zbek adabiy tili rivojidagi xizmatlari	2
11	Alisher Navoiyning ma'rifiy-ta'limiy asarlari	"Arba'in", "Nazm ul-javohir" va "Nasoyim ul-muhabbat" asarlarining mazmun-mohiyati, amaliy ahamiyati tushuntiriladi	2
12	"Mahbub ul-qulub" asari	Asarda ifodalangan axloqiy-didaktik masalalar va ularning badiiy ifodasi	2
13	Navoiyning tarixiy asarlari va yodnomalari	Navoiy tarixnavisligiga xos yetakchi xususiyatlar va holotlarning memuar janrining yuksak namunasi ekanligi asoslanadi	2
14	Navoiyning tasvir uslubi haqida	Navoiyning tasvir uslubiga xos kononik xususiyatlar, badiiy san'atlarni tasvir mantig'i bilan uyg'unlashtirishi masalalari	2
15	Alisher Navoiy ijodini umumta'lim maktablarida o'rgatish masalalari	Navoiy g'oya va obrazlarining ta'lim-tarbiyaga tatbiqi masalalari talqini	2
<b>Jami:</b>			<b>30 s.</b>

**1. Seminar mashg'ulotlar**

Seminar mashg'ulotlarida talabalar ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini seminar mashg'ulotlariga tayyorlanish orqali yanada boyitadilar.

№	Seminar mashg'ulot mavzulari	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soatlar hajmi
<b>1-bob (modul). Alisher Navoiyning hayoti, ijodiy merosi</b>			
1	Navoiy hayoti va ijodi zamondoshlari xotirasida	Navoiyshunoslik shoir davridayoq boshlanganligi tushuntiriladi	2
2	Navoiyning debochanavislik mahorati va debochalar mundariyasi	Navoiyning lirik devonlariga yozgan debochalari va muallif unda e'tibor qaratgan eng muhim jihatlari o'rganiladi	2
3	Navoiy lirikasining janriy xilma-xilligi. G'azal janri	"Xazoyin ul-ma'niy" kulliyotidagi lirik janrlar tavsiflanadi. Janrlarning devonlarga taqsimlanishi	2
4	Navoiy lirikasida kichik janrlar – ruboiy va qit'alarining o'ziga xos xususiyatlari	Kichik lirik janrlar, ruboiy va qit'a janrlari yetakchi xususiyatlari	2
5	Navoiy lirikasida kichik janrlar – tuyuq va fardlarning o'ziga xos xususiyatlari	Kichik lirik janrlar, ruboiy va qit'a janrlari yetakchi xususiyatlari	2
6	Navoiy qasidalari	Navoiyning qasida yaratish mahorati, turkiy va forsiy qasidalarining o'ziga xos xususiyatlari	2
7	Navoiy soqiynomasi va tarji'bandlarida falsafiy mazmun ifodasi	Soqiyнома janri va unga xos jihatlari, Navoiy tarji'bandlarining mazmun-mohiyati, badiiyati tahlili	2
8	Navoiy lirikasida tamsil va talmehning qo'llanishi	Navoiy lirikasida tamsil va talmeh san'atining badiiy funksiyasi, asar mazmuni bilan munosabati	2
<b>2-bob (modul). "Xamsa" dostonlari badiiyati</b>			
9	"Hayrat ul-abror" dostonidagi maqolat va hikoyatlar tahlili	Maqolat va hikoyatlarining falsafiy-badiiy mohiyati	2
10	"Hayrat ul-abror" dostonidagi maqolat va hikoyatlar tahlili	Maqolat va hikoyatlarining falsafiy-badiiy mohiyati	2
11	"Farhod va Shirin" dostonida yetakchi obrazlar tizimi	Dostonning obrazlar tizimi, Farhod va Shirin obrazlarining bu sistemadagi o'zmi	2
12	"Layli va Majnun"ning tasavvufiy talqini	Majoz va haqiqat ifodasi. Layli – ilohiy ishq mazhari sifatida.	2
13	"Sab'ayi sayyor" dostonidagi qissalar tahlili	Yetti sayyoh sarguzashtining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, doston arxitektonikasi bilan munosabati	2
14	"Saddi Iskandariy" dostonida Iskandar obrazi talqinlari	Navoiy adabiy ideali ifodasi va navotirligi masalalari	2
15	"Saddi Iskandariy"	Navoiyning hikoyanavislik mahorati va	2

	dostonidagi hikoyatlar tahlili	ijodiy originalligi masalalari	
16	"Lison ut-tayr" dostonida talab va ishq vodiylari badiiy talqini	Dostonning ramziy asar ekanligi. Unda majoz va haqiqat yoritilishi	2
17	"Lison ut-tayr" dostonida ma'rifat va istig'no vodiylari badiiy talqini	Dostonning ramziy asar ekanligi. Unda majoz va haqiqat yoritilishi	2
<b>3-bob (modul). Ilmiy-nasriy asarlari</b>			
18	"Mahbub ul-qulub" – axloqiy-talimiy asar	Asarda hayot falsafasi, ijtimoiy-ma'naviy masalalar tasviri	2
19	"Mahbub ul-qulub" – axloqiy-talimiy asar	Asarda hayot falsafasi, ijtimoiy-ma'naviy masalalar tasviri	2
20	"Majolis un-nafois" adabiyotshunoslikka oid asar sifatida	Shoirning filologik ilmiy tafakkuri mahsullari yoritilishi	2
21	"Muhokamat ul-lug'atayn"ning tilshunoslikdagi o'zmi va ahamiyati	Navoiyning tilshunoslikka oid qarashlari, o'zbek adabiy tilining jonkuyari sifatidagi xizmatlari	2
22	Navoiyning holotlari	"Xamsat ul-mutahayyirin", "Holoti Sayyid Hasan Ardasher" va "Holoti Pahlavon Muhammad" memuarlari	2
23	"Arba'in" va hadislarni she'rga solish an'anasi	Navoiy ijodining ma'rifiy ahamiyati, she'r va hadis masalalari	2
24	"Nazm ul-javohir" va "Siroj ul-muslimin"da ta'limiy masalalar	Navoiy ijodining ma'rifiy ahamiyati, she'r va axloq masalalari	2
25	"Tarixi muluki Ajam" va "Tarixi anbiyo va hukamo" asarlari	Navoiyning tarixnavisligi, tarixga munosabati tahlil etiladi	2
26	"Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasida tasavvuf masalalari	Navoiyning tazkiranavislik mahorati, so'fiylar va tasavvufga munosabati	2
27	"Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasida tasavvuf masalalari	Navoiyning tazkiranavislik mahorati, so'fiylar va tasavvufga munosabati	2
28	"Vaqfiya" – tarixiy-biografik asar sifatida	Asarda Navoiy biografiyasiga oid ma'lumotlarning aks etishi, muallifning o'zi haqidagi iqrurlari	2
29	"Munajat" asari tahlili	Asarning mazmuni, avtobiografik xususiyatlari	2
30	Alisher Navoiy va bugun. Navoiyshunoslikning dolzarb masalalari	Navoiy ijodining bugungi kun uchun ahamiyati, tadqiq etish masalalari va istiqbollari	2

Jami: 60 s.

### 3. Mustaqil ta'lim ishlari

Talabaga mustaqil ta'limni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- Darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- Tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- Maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- Talabani o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish.
- O'rganilmagan, muammoli mavzular bo'yicha tezis, maqolalar tayyorlash;
- Badiiy asarlarni o'qish va mutolaa qilish;
- Faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari.

№	Mustaqil ta'lim mavzulari	O'quv mashg'ulot turi nomi	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Sotlar hajmi
<b>1-bob (modul). Navoiy lirikasida she'riy san'atlar</b>				
1	Xondamirning "Makorim ul-axloq" asarida Navoiy shaxsiyati va faoliyatiga doir qarashlar	amaliy	"Makorim ul-axloq" asarini mustaqil mutolaa etish.	4
2	"Badoye' ul-bidoya" devoni debochasining mazmun-mohiyati	amaliy	"Badoye' ul-bidoya" debochasi konspekt qilinadi	4
3	Navoiyning hamd, na't, oshiqona, orifona va rindona g'azallaridan yodlash va g'oyaviy-badiiy jihatdan tahlil qilish	amaliy	G'azallarning mavzu turlari va ularning xarakterli jihatlarini farqlash, mazmuni va ifodasini tushunish	6
4	Navoiyning hamd, na't, oshiqona, orifona va rindona g'azallaridan namunalarini g'oyaviy-badiiy jihatdan tahlil qilish	amaliy	G'azal sharhlash ko'nikmasini shakllantirish, ma'no va badiiy ifoda munosabatlarini tushunish	6
5	Navoiy lirikasida she'riy san'atlarning namoyon bo'lishi (Lafziy, ma'naviy va mushtarak san'atlar misolida)	amaliy	Lafziy, ma'naviy va mushtarak san'atlarga misollar topib kelish	6
<b>2-bob (modul). "Xamsa" dostonlari</b>				
6	"Hayrat ul-abror" dostonining boblar bo'yicha tavsifi	amaliy	Dostonni to'liq mustaqil o'qib-o'rganish	4

8

7	"Farhod va Shirin" dostonining boblar bo'yicha tavsifi	amaliy	Dostonni to'liq mustaqil o'qib-o'rganish	4
8	"Layli va Majnun" dostonining boblar bo'yicha tavsifi	amaliy	Dostonni to'liq mustaqil o'qib-o'rganish	4
9	"Sab'ayi sayyor" dostonining boblar bo'yicha tavsifi	amaliy	Dostonni to'liq mustaqil o'qib-o'rganish	4
10	"Saddi Iskandariy" dostonining boblar bo'yicha tavsifi	amaliy	Dostonni to'liq mustaqil o'qib-o'rganish	4
<b>3-bob (modul). Epik asarlari</b>				
11	"Lison ut-tayr" dostonining vodiylar bo'yicha tavsifi	amaliy	Dostonni to'liq mustaqil o'qib-o'rganish	4
12	"Munshaot" asaridagi maktublar tasnifi	amaliy	Maktublarni o'qish	4
13	"Muhokamat ul-lug'atayn" asarida tilshunoslik masalalari	amaliy	Asar matnini o'qib-o'rganish	4
14	"Majolis un-nafoyis"dagi majlislar tahlili	amaliy	Majlislar mutolaaasi	4
15	"Xazoyin ul-maoniy"dagi janrlarni "Devoni Foniy"dagi janrlar bilan qiyoslash	amaliy	Ikkala manbani qiyosiy tahlil asosida o'rganish	4
16	"Xamsat ul-mutahayyirin" tavsifi	amaliy	Asarni to'liq mutolaa qilish, avtointerpretatsion nuqtalarni aniqlash	4
17	"Nasoyim ul-muhabbat"dagi hikoyatlar sharhi	amaliy	Tazkiradagi hikoyatlarining so'fiyona ma'nolari va ularning badiiy ifodasini aniqlash	4
18	"Vaqfiya"da Navoiy shaxsiga xos fazilatlarining aks etishi	amaliy	"Vaqfiya"ni to'liq o'qish, Navoiy shaxsiyatini ko'rsatuvchi o'rinlarni aniqlash	4
19	"Tarixiy anbiyo va hukamo"da hakimlar zikri	amaliy	"Tarixiy anbiyo va hukamo" asarini to'liq, o'qib, undagi hakimlar zikrini qiyosiy tahlil etish	4
20	"Mahbub ul-qulub"dagi yaxshi fe'l va yomon xislatlar bayoni	amaliy	"Mahbub ul-qulub"ni to'liq o'zlashtirish	4
21	Navoiyning qit'a, ruboiy, fard va muxammaslaridan	amaliy	Mazkur lirik janrlar ustida mustaqil va muttasil ishlash	4

9

namunalar yodlash va sharhlab kelish			
			<b>Jami: 90 s.</b>

#### 7. O'QUV ADABIYOTLARI VA AXBOROT MANBALARI

##### Asosiy adabiyotlar:

1. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. Darslik. – T.: TAMADDUN, 2018.
2. Yusupova D. O'zbek mumtoz va milliy uyg'onish adabiyoti (Alisher Navoiy davri). O'quv qo'llanma. – T.: TAMADDUN, 2016.
3. Sirojiddinov Sh. Alisher Navoiy. Manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili. – T.: Akademiya, 2011.
4. Is'hoqov Y. Navoiy poetikasi. – T.: Fan, 1983.
5. Komilov N. Xizr chashmasi. – T.: Ma'naviyat, 2005
6. Komilov N. Ma'nolar olamiga safar. – T.: TAMADDUN, 2016.
7. Alisher Navoiy: qomusiy lug'at. 1-2-jildlar /Mas'ul muharrir Sh.Sirojiddinov. – T.: Sharq, 2016.
8. Navoiy g'azaliyoti talqinlari. T., O'zbekiston, 2016.
9. Jumaxo'ja N. "Qaro ko'zum..." g'azali tadqiqi. T., Muharrir, 2021.

##### Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" to'g'risidagi Farmoni (Xalq so'zi 2017 yil, 8 fevral).
3. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: O'zbekiston, 2017.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risida (Xalq so'zi 2017 yil, 21 aprel).
5. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. 1-20 jildlar. – T.: Fan, 1987-2003.
6. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 1-10 jildlar. – T.: G'afur G'ulom nashriyoti, 2011.
7. Komilov N. Tasavvuf. – T.: Movarounnahr – O'zbekiston NMIU, 2009.
8. Hayitmetov A. Navoiy lirikasi. – T.: O'zbekiston, 2016.
9. Жумахўжа Н. Сатрлар силсиласидаги сехр / Истиқлол даври ўзбек навоийшунослиги. 30 жилдлик. 14 жилд. – Тошкент: Tamaddun, 2022.

#### Elektron ta'lim resurslari:

1. [www.alishernavoiy.uz](http://www.alishernavoiy.uz)
2. [www.ziyo-net.uz](http://www.ziyo-net.uz)
3. [www.literature.uz](http://www.literature.uz)
4. [www.kutubxona.uz](http://www.kutubxona.uz)

#### 8. ISHCHI O'QUV DASTURI HAQIDA MA'LUMOT

Ishchi o'quv dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2022-yil "28" "09" dagi "1" -sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

##### "O'zbek adabiyoti tarixi" kafedrasini mudiri, f.f.d., professor

N.Jabborov  (imzo)

##### Tuzuvchi:

I. Ismoilov  (imzo)

ToshDO'TAU, "O'zbek adabiyoti tarixi" kafedrasini katta o'qituvchisi, filologiya fanlari nomzodi.

##### Taqrizchilar:

I. Adizova \_\_\_\_\_ (imzo)

ToshDO'TAU, "O'zbek adabiyoti tarixi" kafedrasini professori, filologiya fanlari doktori.

B. To'xliyev \_\_\_\_\_ (imzo)

TDSHU "Mumtoz filologiya" kafedrasini professori, filologiya fanlari doktori.